O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI XALQ DEPUTATLARI XONQA TUMANI KENGASHI

Q A R O R I

2023 - yil 7 - yanvar VI-75-5-12-175-K/23 Xonqa tuman hokimligi

Xonqa tumanining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2023-yil 5-yanvardagi “Xorazm viloyatining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-57-1-12-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq hamda Xorazm viloyati hokimligining moliya bosh boshqarmasining 2022-yil 30-dekabrdagi 01-01-33-38/405-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Xonqa tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Xorazm viloyat kengashining 2023-yil 5-yanvardagi VI-57-1-12-0-K/23-sonli “Xorazm viloyatining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Xorazm viloyat kengashining 2023-yil 5-yanvardagi VI-57-1-12-0-K/23-sonli “Xorazm viloyatining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga (keyingi o‘rinlarda Qaror deb ataladi) muvofiq, Xonqa tuman mahalliy byudjetining 2023-yil uchun daromadlari 129,5 mlrd.so‘m, xarajatlari 219,4 mlrd.so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 89,9 mlrd.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023-yil uchun Xonqa tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2023-yil uchun Xonqa tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet

mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2023-yil uchun Xonqa tuman mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2023-yil uchun Xonqa tuman mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2023-yil uchun viloyat byudjetidan Xonqa tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2023-yil uchun Xonqa tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 2,1 mlrd.so‘m miqdorida belgilansin.

9. 2023-yil uchun Xonqa tuman mahalliy byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. Yuridik shaxslar bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari uchun hududlar kesimida mutlaq miqdorga 1 gektarga belgilangan bazaviy soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

11. Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) yer maydonlari uchun hududlar kesimida mutlaq miqdoriga 1 kv.m uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 8-ilovaga muvofiq belgilansin.

12. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, Xalq deputatlari Xorazm viloyat kengashining 2023-yil 5-

yanvardagi “Xorazm viloyatining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-57-1-12-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq 2023-yilda quyidagi soliq turlari:

a) Xonqa tuman mahalliy byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishincha 2022-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq.

b) 3-ilovaga muvofiq quyidagi soliq turlari viloyat va tuman byudjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.

13. Xonqa tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Qurbanov), tuman moliya bo‘limi (D.Abdullaev), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (S.Niyazov) mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan

to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 25-oktabrdagi PQ-409-son qaroriga asosan 2023 moliya yilidan boshlab:

a) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida “Ochiq byudjet” axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanadi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari uchun tuman (shahar) byudjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi;

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

15. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Qurbanov), tuman moliya bo‘limi (D.Abdullaev), Davlat soliq inspeksiyasi (S.Niyazov) va mas’ul bo‘lim va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjetiprognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

16. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (S.Niyazov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirishga;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rishga;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazishga;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining

soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

17. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (S.Niyazov), Kadastr agentligi Xonqa tuman bo‘limi 2023 yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, viloyatda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

18. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (S.Niyazov), tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

19. Majburiy ijro byurosi Xonqa tuman bo‘limi tuman Davlat soliq inspeksiyasi (S.Niyazov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

20. Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (A.Abdullaev) jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

21. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Qurbanov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini «e-ijro auksion» mayonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

22. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Qurbanov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni byudjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

23. Irrigatsiya tizimi bo‘limi (T.Xo‘janiyozov) va tuman soliq inspeksiyasi (S.Niyazov) tuman hokimining qishloq va suv masalalari bo‘yicha o‘rinbosari bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

24. Tuman moliya bo‘limi (D.Abdullaev):

byudjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlari kuchaytirsin;

byudjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har oy yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy

o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti xar chorakda eshitib borilsin.

25. Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

26. Xonqa tuman hokimligi:

Tuman mahalliy byudjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, Xonqa tuman xalq deputatlari, tuman hokimligining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

27. Xonqa tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Qurbanov), tegishli

muassasa va tashkilotlar bilan birgalikda:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

28. Xonqa tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

29. Mazkur qaror “Xonqa hayoti” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

30. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

31. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Xonqa tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va Xonqa tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **M.Davlatov**

Xalq deputatlari Xonqa tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-75-5-12-175-K/23-son qaroriga
1-ilova

**2023 ЙИЛ УЧУН ХОНҚА ТУМАНИ БЎЙИЧА
МАҲАЛЛИЙ БЮДЖЕТ ДАРОМАДЛАРИНИНГ РЕЖА КЎРСАТКИЧЛАРИ**

Даромад турлари		**минг. сўм**
1	Фойда солиғи	
2	Айланмадан олинадиган солиқ	10 992 000
3	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	29 206 000
4	Якка тартибдаги тадбиркорлар учун жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	1 081 000
5	Якуний истеъмолчиларга бензин, дизель ёқилғиси ва газ реализация қилишдаги акциз солиғи	16 289 000
6	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	6 655 000
7	Жисмоний шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	5 460 000
8	Жисмоний шахсларнинг ер солиғи	7 978 000
9	Қурилиш материаллари бўйича ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ	201 000
10	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ	4 696 000
11	Юридик шахсларнинг ер солиғи	15 295 000
12	Жарималар	
13	Давлат унитар корхоналари дивиденд тушумлари	
14	Давлат мулки бўйича ижара тўловлари	304 000
15	Йиғимлар	
ЖАМИ		**98 157 000**
	Мобиль алоқа хизмати, тамаки ва алкоголь маҳсулотлари, шу жумладан пиво учун акциз солиғи тушумларидан тегишли равишда ўтказиб бериладиган даромадлар	**31 320 690**
	Алкоголь маҳсулотлари, шу жумладан пиво	12 670 824
	Мобиль алоқа хизмати	5 435 047
	Тамаки маҳсулотлари	13 214 819
ЖАМИ ДАРОМАД		**129 477 690**

Xalq deputatlari Xonqa tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-75-5-12-175-K/23-son qaroriga
2-ilova

2023 йил учун Хонқа туман бюджетидан биринчи даражали бюджет маблағларини тақсимловчиларга ажратиладиган кенгаш ажратмаларининг чекланган миқдорлари

№	Кўрсаткичлар	миқдори
Харажатлар миқдори, Жами		**219 368 857,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	**219 368 857,0**
	иш ҳақи, пенсия, стипендия, нафақалар миқдорларини ва айрим хизмат турлари бўйича тарифларни ошиши билан боғлиқ харажатлар (индексация харажатлари)	**0,0**
	Туман ва шахар маҳаллий бюджетларига трансфертлар	
1.	**Халқ таълими бўлими**	**8 132 783,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	8 132 783,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
2.	**7-сон мусиқа ва санъат мактаби**	**2 495 805,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	2 495 805,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
3.	**Мактабгача таълим бўлими**	**23 235 853,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	23 235 853,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
4.	**Соғлиқни сақлаш**	**71 612 999,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	71 612 999,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
5	**Маданият бўлими**	**1 200 365,0**
	шу жумладан:	

	жорий харажатлар	1 200 365,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
6	**Ахборот-кутубхона маркази**	**875 524,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	875 524,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
7	**Жисмоний тарбия ва спорт бўлими**	**3 555 476,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	3 555 476,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
8	**Ирригация бўлими**	**872 246,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	872 246,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
9	**Туман фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгаши**	**488 664,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	488 664,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
10	**Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш**	**1 182 817,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	1 182 817,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
11	**Хайвон касалликлари ташкхиси ва озиқ-овқат махсулотлари хавсизлиги давлат маркази**	**441 533,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	441 533,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
12	**Молия бўлими**	**1 474 404,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	1 474 404,0

	иш ҳақи, пенсия, стипендия, нафақалар миқдорларини ва айрим хизмат турлари бўйича тарифларни ошиши билан боғлиқ харажатлар (индексация харажатлари)	
13	**Ободонлаштириш бошқармаси**	**14 882 772,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	14 882 772,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
14	**Хонқа туман ҳокимлиги**	**8 445 618,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	8 445 618,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
15	**Маҳалла ва нуронийларни қўллаб қувватлаш бўлими**	**4 458 410,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	4 458 410,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
16	**Халқ депутатлари Хонқа туман Кенгаши котибияти**	**211 294,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	211 294,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
17	**Бандлик ва меҳнат муносабатлари бўлими**	**1 139 968,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	1 139 968,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
18	**Қишлоқ хўжалиги бўлими**	**549 969,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	549 969,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
19	**Ёшлар ишлари агентлиги Хонқа туман бўлими**	**3 945 619,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	3 945 619,0

	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
20	**Оила ва хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш бўлими бўлими**	**2 674 934,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	2 674 934,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
21	**Бошқа харажатлар**	**67 491 804,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	67 491 804,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	

Xalq deputatlari Xonqa tuman Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-75-5-12-175-K/23-son qaroriga
3-ilova

Умумдавлат солиқларидан шаҳар ва туманлар маҳаллий бюджетларига ажратмалар меъёри

Фоиз ҳисобида

Т/Р	Шаҳар ва туманлар номи	Айланмадан олинадиган солиқ	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	Жисмоний шахсларга тегишли мол-мулкни ижарага беришдан оладиган йиллик даромади тўғрисидаги декларацияга асосан тўлайдиган, шунингдек якка тартибдаги тадбиркорлар тўлайдиган жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	Бензинни, дизель ёқилғисини ва газни якуний истеъмолчиларга реализация қилишдаги акциз солиғи	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	Жисмоний шахслардан олинадиган мол-мулк солиғи	Юридик шахслардан олинадиган ер солиғи	Жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи	Қурилиш материаллари бўйича ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ, бундан электр станциялари томонидан тўланадиган солиқ мустасно	Давлат активларини фойдаланишга (ижарага) беришдан қонунчиликда белгиланган нормативлар бўйича олинган даромадлар
1	Хонқа тумани	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100

Xalq deputatlari Xonqa tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-75-5-12-175-K/23-son qaroriga
4-ilova

Хонқа туман маҳаллий бюджетларнинг 2023 йил даромадлари ва харажатлариинг чегаравий ҳажми

минг сўмда

Ҳудуд номи	Даромад	Харажат
Хонқа тумани	129 477 690,0	219 368 857,0

Xalq deputatlari Xonqa tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-75-5-12-175-K/23-son qaroriga
5-ilova

Хонқа туман маҳаллий бюджетининг 2023 йилги юқори бюджетдан ажратиладиган тартибга солувчи бюджетлараро трансфертлар миқдорлари

минг сўмда

Т/р	**Шаҳар ва туманлар**	**Тартибга солувчи трансферт миқдори**
1	Хонқа тумани	89 891 167,0

Xalq deputatlari Xonqa tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-75-5-12-175-K/23-son qaroriga
6-ilova

Хонқа туман маҳаллий бюджетида йўл қўйиладиган энг кам маблағлар миқдори

минг сўмда

Т/р	**Шаҳар ва туманлар**	**Миқдор**
1	Хонқа тумани	758 000,0

Xalq deputatlari Xonqa tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-75-5-12-175-K/23-son qaroriga
7-ilova

Юридик шахслар бўйича қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер майдонлари учун ҳудудлар кесимида **мутлақ миқдорга 1 гектарга** белгиланган базавий солиқ ставкаларига киритилаётган камайтирувчи ва оширувчи коэффициентлар

Т/р	**Ҳудуд номи**	**Коэффициент (0,5 дан 2,0 гача)**	**Ер солиғи ставкаси 2023 йил учун 1 (бир) гектар учун сўмда**
1	“Қорамози” МФЙ	0,7	21 056 000
2	“Гулистон” МФЙ	0,7	21 056 000
3	“Истиқлол” МФЙ	0,87	26 169 600
4	“Пахтагул” МФЙ	0,7	21 056 000
5	“Илғор” МФЙ	0,7	21 056 000
6	“Дўстлик” МФЙ	0,87	26 169 600
7	“Янги турмуш” МФЙ	0,7	21 056 000
8	“Ойдин ҳаёт” МФЙ	0,7	21 056 000
9	“Ширин” МФЙ	0,7	21 056 000
10	“Баркамоллик” МФЙ	0,87	26 169 600
11	“Фидойилар” МФЙ	0,87	26 169 600
12	“Ватанпарвар” МФЙ	0,87	26 169 600
13	“Жаннатмакон” МФЙ	0,87	26 169 600
14	“Дургадик” МФЙ	0,7	21 056 000
15	“Олчин”МФЙ	0,7	21 056 000
16	“Наврўз”МФЙ	0,7	21 056 000
17	“Тома” МФЙ	0,7	21 056 000
18	“Моштўғай” МФЙ	0,7	21 056 000
19	“Таянч” МФЙ	0,7	21 056 000
20	“Паҳлавонлар” МФЙ	0,87	26 169 600
21	“Гулғунча” МФЙ	0,87	26 169 600
22	“Эзгулик” МФЙ	0,87	26 169 600

23	“Маҳорат”МФЙ	0,87	26 169 600
24	“Нурафшон” МФЙ	0,7	21 056 000
25	“Маданият” МФЙ	0,7	21 056 000
26	“Шодлик” МФЙ	0,7	21 056 000
27	“Знахос” МФЙ	0,7	21 056 000
28	“Ғайрат” МФЙ	0,7	21 056 000
29	“Мустақиллик” МФЙ	0,7	21 056 000
30	“Катта куч” МФЙ	0,7	21 056 000
31	“Нуробод” МФЙ	0,7	21 056 000
32	“Порлоқ” МФЙ	0,87	26 169 600
33	“Янгиланиш” МФЙ	0,87	26 169 600
34	“Аҳиллик” МФЙ	0,87	26 169 600
35	“Бунёдкор” МФЙ	0,87	26 169 600
36	“Пахтакор” МФЙ	0,7	21 056 000
37	“Маданий ер” МФЙ	0,87	26 169 600
38	“Дўрмон” МФЙ	0,7	21 056 000
39	“Обод” МФЙ	0,7	21 056 000
40	“Туркистон” МФЙ	0,7	21 056 000
41	“Ёш куч” МФЙ	0,87	26 169 600
42	“Мангулик”МФЙ	0,87	26 169 600
43	“Эҳтиром” МФЙ	0,87	26 169 600
44	“Муқаддас”МФЙ	0,87	26 169 600

Xalq deputatlari Xonqa tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-75-5-12-175-K/23-son qaroriga
8-ilova

Жисмоний шахслар бўйича (деҳқон хўжалигини юритиш учун берилган ва қишлоқ хўжалигигамўлжалланган ерлардан ташқари) ер майдонлари учун ҳудудлар кесимида мутлақ миқдорига 1 кв.м учун белгиланган базавий солиқ ставкаларига нисбатан киритилаётган камайтирувчи ва оширувчи коэффициентлар

Т/р	**Ҳудуд номи**	**Коэффициент (0,5 дан 2,0 гача)**	**Ер солиғи ставкаси 2023 йил учун 1 (бир) кв.м учун сўмда**
1	“Қорамози” МФЙ	0,92	247,33
2	“Гулистон” МФЙ	0,92	247,33
3	“Истиқлол” МФЙ	0,92	247,33
4	“Пахтагул” МФЙ	0,92	247,33
5	“Илғор” МФЙ	0,92	247,33
6	“Дўстлик” МФЙ	0,92	247,33
7	“Янги турмуш” МФЙ	0,92	247,33
8	“Ойдин ҳаёт” МФЙ	0,92	247,33
9	“Ширин” МФЙ	0,92	247,33
10	“Баркамоллик” МФЙ	0,92	247,33
11	“Фидойилар” МФЙ	0,92	247,33
12	“Ватанпарвар” МФЙ	0,92	247,33
13	“Жаннатмакон” МФЙ	0,92	247,33
14	“Дургадик” МФЙ	0,92	247,33
15	“Олчин”МФЙ	0,92	247,33
16	“Наврўз”МФЙ	0,92	247,33
17	“Тома” МФЙ	0,92	247,33
18	“Моштўғай” МФЙ	0,92	247,33
19	“Таянч” МФЙ	0,92	247,33
20	“Паҳлавонлар” МФЙ	0,92	247,33
21	“Гулғунча” МФЙ	0,92	247,33
22	“Эзгулик” МФЙ	0,92	247,33

23	“Маҳорат”МФЙ	0,92	247,33
24	“Нурафшон” МФЙ	0,92	247,33
25	“Маданият” МФЙ	0,92	247,33
26	“Шодлик” МФЙ	0,92	247,33
27	“Знахос” МФЙ	0,92	247,33
28	“Ғайрат” МФЙ	0,92	247,33
29	“Мустақиллик” МФЙ	0,92	247,33
30	“Катта куч” МФЙ	0,92	247,33
31	“Нуробод” МФЙ	0,92	247,33
32	“Порлоқ” МФЙ	0,92	247,33
33	“Янгиланиш” МФЙ	0,92	247,33
34	“Аҳиллик” МФЙ	0,92	247,33
35	“Бунёдкор” МФЙ	0,92	247,33
36	“Пахтакор” МФЙ	0,92	247,33
37	“Маданий ер” МФЙ	0,92	247,33
38	“Дўрмон” МФЙ	0,92	247,33
39	“Обод” МФЙ	0,92	247,33
40	“Туркистон” МФЙ	0,92	247,33
41	“Ёш куч” МФЙ	0,92	247,33
42	“Мангулик”МФЙ	0,92	247,33
43	“Эҳтиром” МФЙ	0,92	247,33
44	“Муқаддас”МФЙ	0,92	247,33